



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

O'zbekistonda Turizmni Barqaror Rivojlanishida Ta'lim Va Innovatsiyalarning O'рни

Dlalolova Saodat Ziyovaddinovna
Dotsent, PhD

Annatsiya

Hozirgi davrda turizm iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy sektorlaridan biri hisoblanadi. Barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun zamonaviy ta'lim tizimi va innovatsion yondashuvlarning roli tobora oshib bormoqda. Ushbu maqola O'zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirish jarayonida ta'lim va innovatsiyalarning ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Innovatsiyalar, turizm, barqaror rivojlanish, sun'iy intellect (AI), axborot, infratuzilma, investitsiyalar, raqamli texnologiyalar, ekologik texnologiyalar, Smart-turizm.

Zamonaviy jahon iqtisodiy tizimida mamlakatlar, mintaqalar va umuman butun jahon iqtisodiyotining turli tarkibiy darajalarida turli sohalarida rivojlanish cho'qqisiga doimiy innovatsion faoliyat orqali erishiladi. Shuning uchun ham innovatsiya jamiyat taraqqiyotining eng muhim elementi ekanligi jahon hamjamiyatiga tobora oydinlashib bormoqda. Ko'plab davlatlar rahbarlari o'z mamlakatlari taraqqiyotini innovatsion rivojlanish asosida tashkil etishga intilmoqda. Zamonaviy yangi O'zbekistonda nafaqat mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning samarali usullarini, balki O'zbekiston davlati rivojlanishining innovatsion turini shakllantirish zarurati ham mavjud. Shunday qilib, bugungi kunda mamlakatimizda jamiyatni rivojlantirish paradigmasi shakllandi, uni umumiy ma'noda "sun'iy intellect (AI), axborot, infratuzilma, innovatsiyalar, investitsiyalar"¹ga qisqartirish mumkin. O'zbekiston respublikasining JST(Jahon savdo tashkiloti)ga a'zo bo'lish yo'lida innovatsion rivojlanish modeliga o'tish mamlakat iqtisodiy rivojlanishini tezlashtiradi va uning raqobatbardoshligini oshiradi. Eng katta natijalarga erishish uchun innovatsiyalar inson faoliyatining barcha sohalariga, shu jumladan turizmga ham kirib borishi kerak. Shu nuqtai nazardan innovatsiyalarning mohiyatini qayta ko'rib chiqishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Shuning uchun zamonaviy nuqtai nazardan biz ushbu ilmiy kategoriya haqidagi konseptual g'oyalarni ko'rib chiqamiz.

"Innovatsiya" so'zi ingliz tilidan kirib kelgan so'z bo'lib, ingliz tilidan so'zma-so'z tarjimai "innovatsion" yoki "yangilik" degan ma'noni anglatadi. Innovatsiyani yangi tartib, yangi odat, yangi usul, ixtiro, yangi hodisa deb tushunsak o'rinli bo'ladi. "Innovatsiya" iborasi tom ma'noda

¹ Шамраев А.В. Прогресс систем электронного перевода денежных средств США и его распространение в странах Западной Европы, 70-90-е гг., начало XXI в.: Дис.... канд. экон. наук: 08.00.14.-М., 1998.-189 с.

"yangilik kiritish" degan ma'noni ifodalaydi va yangilikdan foydalanish jarayonini anglatadi. Yangilik tarqatish uchun qabul qilingan paytdan boshlab yangi sifatga ega bo'ladi - u yangilikka (innovatsiyaga) aylanadi.

Innovatsiyalar va ularning jamiyat hayotining barcha sohalariga ta'sirini o'rganishga katta hissa qo'shgan rus iqtisodchisi N.D. Kondratiyev 50-60 yil davom etadigan yirik sikllar nazariyasini asoslab berdi va yangi siklga o'tish ishlab chiqarish vositalari fondining kengayishi, to'plangan ixtirolarni ommaviy joriy qilish uchun sharoit yaratish bilan bog'liqligini isbotladi. Uning fikricha yangi siklga o'tishni texnik taraqqiyot bilan bog'ladi: «Har bir yirik siklning yuqoriga ko'tarilgan to'lqini boshlanishidan oldin, ba'zan esa uning boshida jamiyatning iqtisodiy hayoti sharoitida sezilarli o'zgarishlar kuzatiladi. Bu o'zgarishlar odatda u yoki bu kombinatsiyada, muhim texnik ixtirolar va kashfiyotlar, ishlab chiqarish va ayirboshlash texnologiyasidagi chuqur o'zgarishlarda ifodalanadi»².

Hozirgi davrda turizm iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy sektorlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonning boy madaniy merosi, tabiiy go'zalliklari va qadimiy shaharlari turizmni rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega. Shu bilan birga, barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun zamonaviy ta'lim tizimi va innovatsion yondashuvlarning roli tobora oshib bormoqda. Ushbu maqola O'zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirish jarayonida ta'lim va innovatsiyalarning ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Turizmning barqaror rivojlanishi tushunchasi– bu iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarni uyg'unlashtirgan holda turizmni rivojlantirishga qaratilgan konsepsiya. Bu jarayon tabiiy resurslarni samarali boshqarish, mahalliy aholining manfaatlarini hisobga olish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Barqaror turizmni rivojlantirish uchun malakali kadrlar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim turizm sektorining barqaror rivojlanishida hal qiluvchi mexanizmlardan biridir. Turizm sohasi xodimlarining malakasini oshirish, global standartlar va zamonaviy talablarga moslashish uchun quyidagilar muhimdir:

1. Maxsus ta'lim dasturlari: turizm sohasida oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida sohaga oid zamonaviy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.
2. Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish: talabalar va xodimlar uchun amaliyot dasturlarini joriy etish orqali ularning professional mahoratini oshirish.
3. Xorijiy tillarni o'qitish: chet ellik turistlar bilan samarali muloqotni ta'minlash uchun xorijiy tillarni bilishning ahamiyati katta.

Innovatsiyalar turizmni modernizatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirishda asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonda turizmni barqaror rivojlanishi uchun quyidagi yo'nalishlarda innovatsiyalarni joriy etish talab etiladi:

- Raqamli texnologiyalar: Turistik xizmatlarni onlayn bron qilish, raqamli xaritalar va mobil ilovalar yordamida sayyohlar uchun qulaylik yaratish.
- Ekologik texnologiyalar: Barqaror turizmni rivojlantirish uchun ekologik toza transport vositalarini qo'llash va yashil energetika loyihalarini joriy etish.
- Smart-turizm: Aqlli tizimlar yordamida sayyohlik infratuzilmasini boshqarish va xizmat sifatini oshirish.

O'zbekistonda turizm sohasini malakali, zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar bilan ta'minlash borasida quyidagi choralar amalga oshirilmoqda:

- ✓ Turizm universiteti va boshqa oliy ta'lim muassasalarida maxsus yo'nalishlarning ochilishi.

² Крупнов Ю.С. О природе электронных денег // Бизнес и Банки. - 2003. №5.

- ✓ "Raqamli O'zbekiston" dasturi doirasida turizmga raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.
- ✓ Mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali yangi innovatsion loyihalar uchun imkoniyatlar yaratilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, mamlakatda turizm sohasini barqaror rivojlanishini ta'minlashga xalqaro tajribani o'rganish va uni mahalliy sharoitlarga moslashtirish, innovatsion texnologiyalarni sohaga jalb etish va ularni keng ko'lamda qo'llash, shuningdek, turizm sohasida asosiy kapitalni va infratuzilmani holatini yangilash uchun investitsiyalarni jalb qilish, mahalliy aholining turizm sohasidagi malakasini oshirish orqali erishiladi.

Turizmning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun innovatsiyalarni qo'llash zarurati jamiyat rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalari bilan belgilanadi. jamiyatning ortib borayotgan ehtiyojlari turizm industriyasi korxonalarini yanada ilg'or, boy, rang-barang turistik mahsulotlarni yaratishga va eng yagona va ayni paytda favqulodda xizmatlarni taklif qilishga majbur qiladi. Bu turizmning yangi turlarining shakllanishiga olib keladi, masalan: qishloq turizmi, kosmik turizm va boshqalar; qattiq raqobat - bu agressiv narx raqobatidan sifat va narx-navoning optimal nisbati sohasidagi raqobatga o'tishning natijasidir, shuningdek, imtiyozlarni chuqurroq o'rganishga imkon beradigan yangi marketing strategiyalarini izlash va shakllantirishga olib keladi.

Belgilangan maqsadga erishish jarayoni samaradorligini oshirishning zarur sharti qo'llaniladigan innovatsiyalarning mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umumiy yo'nalishi va uning ilmiy-texnikaviy taraqqiyot darajasiga muvofiqligidir, chunki ba'zi o'zgarishlar rivojlanishi mumkin.

O'zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirish uchun ta'lim va innovatsiyalarni rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, xalqaro standartlarga moslashish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Shu bilan birga, turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha kompleks yondashuvlarni qo'llash muhimdir. Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilganda, O'zbekiston mintaqaviy va global miqyosda turizm sohasida raqobatbardosh davlatlardan biriga aylanishi mumkin.